

ESSE JANRIDA ANTONIMLARNING LEKSIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Raximova Mohinabonu

Lingvistika – o‘zbek tili mutaxassisligi II bosqich magistranti

Ushbu maqolada esse janrida antonimlarning leksik-stilistik xususiyatlari, hamda esse janrining leksik-stilistik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida antonim so‘zlar o‘ziga xos ahamiyatga egaligi haqida ham so‘z yuritilgan.

Ma’lumki, zid ma’noli so‘zlar, ya’ni antonimlarni o‘rganish masalasi bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida maxsus tadqiqotlar yaratilgan. Antonimlarning ta’rifi hamda turlari haqida bir qancha qarashlar ham bildirilgan, biroq ular bir-biridan keskin farq qilmaydi.

Antonimlar A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da “o‘zaro zid, qarama-qarshi ma’noli til birliklari: **leksik antonimlar**: katta-kichik, baland-past, uzoq-yaqin; **antonim affikslar**: -li, -siz: qumli-qumsiz; **frazeologik antonimlar**: esiga kelmoq-yodidan ko‘tarilmoq, ko‘ngli ochiq-ko‘ngli qora”¹ tarzida, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa “Antonimlar yunoncha so‘z bo‘lib, qarama-qarshi, zid ma’noli til (nutq) birliklari”² deb ta’rif beriladi. Sh.Raxmatullayevning “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”da ham qarama-qarshi, zid ma’no bildiradigan so‘zlar biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi. Demak, antonim so‘zlarga berilgan ta’riflarning hammasi mohiyatan bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

Esse janrida antonimlarning qo‘llanilishi va leksik-stilistik xususiyatlarini o‘rganishda Sh.Raxmatullayev, N.Mamatov va R.Shukurovlarning tadqiqotlariga asoslanamiz.

Antonimlar publististik matnlarda, xususan, esse janrida muhim stilistik vosita rolini bajaradi. Ular ekspressivlikni, ta’sirchanlikni ta’minlash, ijobiy va salbiy holatlarni ochishda, turli munosabatlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Antonim so‘zlarning har biri o‘z semantik-stilistik ma’nosiga ega bo‘lib, ularning ma’nolari konteksta aniq bo‘ladi. Ularni o‘z o‘rnida ma’no nozikligiga qarab qo‘llash nutqni ravon, aniq va mazmunli qilib ifodalashga yordam beradi.

Esse janrida antonimlarning qo‘llanilishi juda rang-barangdir. Ularni qo‘llashda muallifning mohirligi, topqirligi sezilib turadi. Quyida ana shunday matnlarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

¹ Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: 1978, 7-б.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006 йил, 1 жилд, 103 б.

Ma'lumki, har qanday matnda makon va zamon ruhi sezilib turadi. Mustaqillik yillarida chop etilgan esselarda ko'proq erk va erksizlik, ozodlik va qaramlik, baxt va baxtsizlik, teng va tengsizlik kabi antonim so'zlardan keng foydalanilganligini guvohi bo'lamiz.

Masalan, "**Mustaqil yashash ma'suliyati**" ("Zarafshon", 2013 y, 19 oktyabr, Mamayunus Pardayev) nomli esseda ham ana shunday zid ma'noli so'zlar ko'plab uchraydi:

"Ozodlik – *tiriklik ne'mati. Bunga nafaqat insonlar balki barcha jonzorlar intilib, harakat qilib, unga erishish ishtiyoqi bilan yashaydi*".

Ozodlik – o'z erkiga, haq-huquqiga ega, erk – ixtiyori o'z qo'lida bo'lgan. (O'TAIL, 143-b)

Ozodlik so'ziga qaramlik so'zi antonim bo'la oladi va bu so'z ot so'z turkumiga xos antonimdir.

*Mustaqillikni ham asrab-avaylashimiz va uni mustahkamlab borishimiz, kelgusi **avlodga** ozod va obod Vatanni **erkin** va farovon qoldirishimiz lozim.*

*Mustaqillikni orzu qilmagan, unga erishmagan xalq boqimanda, **qaram** hisoblanadi.*

Ushbu matndagi **avlod** so'ziga **ajdod** so'zi o'zaro antonim bo'la oladi.

Avlod – bir ota-onaning farzandlari, kelajak bo'g'in kishilari. (O'TAIL,21-b)

Ajdod – hozirgi avlodning ota-onasi, ota-bobolari, oldingi bo'g'in kishilari. (O'TAIL,21-b)

Muallif o'tmish va bugunni, bugun va kelajakni, ya'ni tinch totuv hayotimizni, erkin turmushimizni qaramlik davri bilan solishtirish, ana shu farovonlikni kelajakka to'laqonli yetkazib berishimiz lozimligini uqtirish maqsadida **avlod-ajdod, erkin-qaram** so'zlaridan o'rinli foydalangan. **Erkin** so'ziga **qaram** so'zi o'zaro antonim hisoblanadi.

Erkin – boshqa davlatlarga tobe bo'lmagan, ixtiyori o'zida bo'lgan, o'z erki bilan ish tutadigan (O'TAIL, 200-b)

Qaram – boshqa davlat tomonidan bosib olingan, ekspluatatsiya qilinadigan, o'z erki bilan ish tuta olmaydigan (O'TAIL, 200-b)

Aynan ushbu antonim so'zlar matnning ta'sirchanligini, ekspressivligini oshirishga xizmat qilgan.

*"... ozod bo'lmagan insonning **bor-yo'qligiga, ochlik va to'qligiga, baxtli va bebaxtligiga** kimdir ma'sul, kimdir qayg'urishi kerakdek, go'yo.*

Ushbu gapda quyidagi so'zlar o'zaro antonim hisoblanadi.

Bor - voqe holatda, naqd holatda bo'lgan, mavjud (O'TAIL, 54-b)

Baxtli – hayotidan o'ta mamnun, bearmon va shodu xurram yashaydigan (O'TAIL, 41-b)

Ochlik – ovqat yeyishga ehtiyoj sezish, ovqat talab bo'lish (O'TAIL, 150-b)

Yo'q - voqe holatda, naqd holatda bo'lmagan (O'TAIL, 54-b)

Bebaxt – hayotida o'ta norozi va qayg'u hasrat bilan yashaydigan (O'TAIL, 41-b)

To'qlik – ovqat yeb to'yganlik, ovqat talab bo'lmaslik (O'TAIL, 150-b)

Muallif bor-yo'qlik, och-to'qlik, baxtli va bebaxtlik kabi antonim so'zlardan mustaqillik qanday buyuk ne'mat ekanligini, uni asrab-avaylashimiz, qadriga yetishimiz lozimligini uqtirish maqsadida o'rinli foydalangan. Zid ma'noli so'zlar orqali har qanday holatni yaxshi va yomon tomonini, ijobiy va salbiy ma'nolarini aniq ochib berish mumkin. Shuning uchun ham antonim so'zlarda o'zaro zid qo'yish, qarama-qarshi ma'nolarni keltirish orqali fikrni to'g'ri, aniq yetkazish va kuchli ta'sir o'tkazish mumkin. Esse janri badiiy-publitsistik janrlar sirasiga kirganligi bois bu janrda badiiylilik kuchli namoyon bo'ladi.

Aniqlik, obrazlilik, ta'sirchanlik va ixchamlik, dabdabali, balandparvoz uslubdan voz kechish, emotsional-ekspressivlik kabilar tildan foydalanishning OAVlariga xos bo'lgan jihatlaridir. Publitsistik uslubning turli janrlarida tildan foydalanishga e'tibor turlicha hisoblanadi. Esse janrida esa badiiylilikni oshirish maqsadida ta'sirchan so'zlardan keng foydalaniladi. Bunda antonim, sinonim va takror so'zlarning alohida o'rni bor.

Xullas, esse janrining leksik-stilistik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida antonim so'zlar o'ziga xos ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim. Ushbu janrning lingvostilistik tadqiqi jarayonida antonim so'zlar bilan birga sinonim so'zlar, shakldosh so'zlar va iboralarni ham o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero, tilimizdagi har bir so'zdan ma'lum bir maqsadni ifodalashda, bayon qilishda foydalaniladi. Ana shu so'zlardan to'g'ri va o'rinli foydalanish muallifning, xususan, jurnalistning mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: 1978, 7-б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006 йил, 1 жилд, 103 б.

3. Абдусаидов А. Газета тилининг лексик-стилистик хусусиятлари. Сам.1991, 42-55 бетлар.
4. Рахматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1980. 100-150 бетлар.